

**Mollyuskalar tipi. Hayotiy jarayonlari va sistematikasi**

*Mirzasultonova Shaxzoda Alisher qizi*

*Andijon Davlat Pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Mollyuskalar tipining vakillari, tuzulishi, hayot kechirish tarzi va sistematik birlıklari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Mollyuska, ustritsa, taroqcha, midiya, biofiltr organizm, dengiz marvariddori, dreysena.

Mollyuskalar xilma xil tuzilgan eng qadimgi hayvonlar guruhi hisoblanadi. Ular quyidagi xususiyatlari bilan boshqa hayvonlardan farq qiladi. Ko'pchilik mollyuskalar bilateral simmetriyali hayvonlar. Ko'chilik mollyuskalar ning tanasi bo'g'implarga bo'linmagan. Tanasi bosh, bo'yin, gavda bo'limlaridan iborat. Harakatlanish organi qorin bo'limidan hosil bo'lган yagona o'simta. Mollyuskalar ikkilamchi tana bo'shliqli hayvonlar bo'lib, selom qoldig'i yurak oldi haltasi va jinsiy bezlari bo'shlig'idan iborat. Ichki organlari oralig'ini biriktiruvchi to'qima to'ldirib turadi. Mollyuskalar tanasi mantiya teri bilan qoplangan. Mantiya va tana oralig'ida mantiya bo'shlig'i bor. Bu bo'shliqda jabralar va ayrim sezgi organlari joylashgan. Ayirish orqa chiqaruv va jinsiy bezlarning teshigi ham ana shu bo'shliqqa ochiladi. Tanasining orqa tomonida mantiyadan hosil bo'lган chig'anog'I joylashgan. Chig'anoq tanani himoya qilib turadi.

Qon aylanish sistemasi ochiq bo'lib, qoni tomirlar bo'ylab oqishi bilan birga lakunlar va sinuslar deb ataladigan naylar orqali ham oqib o'tadi. Yuragi qorinchcha va bo'l machadan iborat. Nafas olish organlari odatda ktenidiy deb ataladigan jabralardan iborat. Faqat quruqlikda hayot kechiradigan bir qancha chuchuk suv qorinoyoqli mollyuskalari o'pka orqali nafas oladi. Ayirish organi halqali

chuvalchang-larning metanefridiylariga o'xshash bir juft naysimon buyrakdan iborat. Buyragi yurakoldi holtasidan boshlanib chiqrish sifoni deb ataladigan mantiya bo'shilg'iga ochiuladi. Nerv sistemasi tanasining har xil qismida tarqoq joylashgan nerv tugunlaridan iborat. Faqat tuban tuzilgan mollyuskalarining nerv sistemasi halqum atrifi nerv halqasi va tana bo'ylab yo'nalgan nerv tolalaridan iborat bo'ladi.

Dengizlarda hayot kechiradigan mollyuskalarining lichinkalari troxofora yoki trtoxoforaga o'xshash yelkanli lichinka – veligerdan iborat.

Mollyuskalar tipiga xilma xil tuzilgan 150000 ga yaqin tur kiradi. Ko'pchilik mollyuskalar dengizlarda va chuchuk suv havzalarida hayot kechiradi. Mollyuskalar tipiga qorinoyoqlilar, boshoyoqlilar, ikki pallalilar sinflari kiradi. Qorinoyoqlilar tanasi spiral o'ralgan chig'anoq ichida joylashgan. Shilliq tanasini mantiya teri o'rab turadi. Mantiyadan chig'anoq hosil bo'ladi. boshining ostki tomonida og'iz teshigi, uning ikki yonida bir juft paypaslagichlari bo'ladi. Boshining ostki tomonida og'iz teshigi uning ikki yonida bir juft paypaslagichlari bo'ladi paypaslagichlari asosida bittadan ko'zi joylashgan. Suv shillig'I oyoq muskullari-ning to'lqinsimon qisqarishi tufayli sirpanib harakat qiladi. Qorinoyoqli mollyuska- larning yer yuzida 100 000 ga yaqin turi bor.

Ikki pallali mollyuskalar dengiz va chuchuk suvlarda tarqalgan. Ularning boshi bo'lmaydi. Yon tomonda yassilashgan gavdasi tana va ponasimon oyoq bo'limlari- dan iborat. Ikki pallailar 30 00dan ortiq turni o'z ichiga oladi. ko'pchilik turlari dengizlarda yashaydi. Ular orasida eng yirigi tridaknaning og'irligi 250 kg ga yetadi ustritsa taroqcha midiylar go'shti uchun ovlanadi. Ayrim mamlakatlarda marvariddorlar, midiylar va ustritsalar ko'paytiriladi. Ikki pallali mollyuskalar suvdagi mikroorganizmlar va mayda organic zarralarni filtrlab oziqlanishi tufayli biofiltr organizmlar deyiladi.

Boshoyoqlilar oyog'ining oldingi qismi o'zgarib, paypaslagichlarni hosil qiladi. Gavdasining uzunligi 1 sm dan 5 m gacha bo'lib, bosh va tana qismlariga ajraladi. Oyoqlari asosida voronkasi joylashgan. Tanasi qalin mantiya bilan o'ralgan. Chig'a- nog'I yo'qolib ketgan. Og'iz teshigi atrofida 8 yoki 10 ta

paypaslagichlari joylash- gan. Paypaslagichlarda juda ko'p so'rg'ichlar joylashgan.

Boshoyoqlilarning bosh miyasi juda kuchli rivojlangan bo'lib, ular xilma xil va murakkab reflekslarni hosil qiladi. Boshoyoqlilar mantiya bo'shlig'iga suv o'tib turadi. Ular suvni mantiya bo'shlig'ida voronkasi orqali katta bosim ostida siqib chiqarib reaktiv harakat qiladi. Orqa ichagiga siyoh haltasi yo'li ochiladi. Ular xavf tug'ilganda suvga siyoh chiqarib, dushmanidan qutulib qoladi. Boshoyoqli mollyuskalar ocean va ocxhiq dengizlarda tarqalgan; ayniqsa, tropic dengizlarda ko'p uchraydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O.Mavlonov "Umurtqasizlar zoologiyasi" Toshkent-2006
- 2.O.Mavlonov 7-sinf zoobiya Toshkent-2017